

## **O‘ZBEKISTONDA ARXIV ISHINI BOSHQARISHNING HUQUQIY ASOSLARI. ARXIV SAHOSIDA QABUL QILINGAN QARORLAR**

**Mambetova Ayxan Abat qizi**

Ózbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti

Nukus filiali 3-bosqish talabasi

E-mail: [mambetovaaykhan@gmail.com](mailto:mambetovaaykhan@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada arxiv sohasidagi huquqiy asoslar va ularning arxiv ishida qollanilishi haqida malumotlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** arxiv, arxiv ishi, arxiv fondi, hujjat.

### **LEGAL BASIS FOR ARCHIVE MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. DECISIONS MADE IN THE ARCHIVE SHOW**

**Abstract:** The article describes the legal framework for the archival and their steeling of their archival.

**Key words:** archive, archives, paperwork, document.

O‘zbekistonning milliy davlat sifatida rivojlanishi va bozor iqtisodiyoti yo‘liga o‘tishi arxiv ishidagi islohotlarni belgilab berdi. Arxiv tashkilotlaridagi islohotlar 1999-yil 15-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida qabul qilingan “Arxivlar tog‘risida” gi Qonun va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktyabrdagi “Arxiv ishi bo‘yicha me‘moriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” va 2004-yil 3-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari asosida amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda arxiv ishini takomillashtirish borasida bir qancha qarorlar qabul qilingan. Jumladan,

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 15-apreldagi “Arxivlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida 769-1-sonli Qarori.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktyabrdagi (N482-sonli) “Arxiv ishi bo‘yicha me‘moriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 29-yanvardagi N 191-sonli “O‘zbekistonda chet elga olib ketilgan hamda xalq boyligi bo‘lgan arxiv hujjatlarini qaytarib olib kelish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi maxsus komissiya to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 3-fevraldagi N 49-sonli “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 6-iyundagi N 131-sonli “Arxiv ishi bo‘yicha me‘moriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida. 1999-yil 30-oktyabrdagi 482-son qaroriga qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi Qarori.

- O‘zbekiston Respublikasi Adilya vazirligi tomonidan 2007-yil 13-avgustda N 1703-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huzuridagi “O‘zArxiv” agentligi bosh direktorining 2007-yil 17-iyun N 18-sonli buyrug‘iga asosan “ Axborot resurslarining arxiv nusxalarini yaratish va ularni davlat saqloviga topshirish bo‘yicha Yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-avgusddagi PQ-949-sonli “Koreya Respublikasi Markaziy davlat arxivlarini rekonstrukciya qilish ham da ularni texnik modernizaciyalash chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 26-avgustdagi N 194- sonli “ O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

- 2012-yil 5-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 101-sonli Qarori.

2012-yil 5-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 101-sonli Qarori hajmiga ko‘ra arxiv qonunchiligida hukumat tomonidan qabul qilingan boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlardan ancha katta hisoblanib, uning mazmuni arxiv sohasining ko‘p tarmoqlarini qamrab oladi. Bu qaror tarkibiga oltita ilova kiritilgan va ularda arxiv ishini tashkil etishga oid Nizomlar tasdiqlangan:

1-ilova – “Arxiv hujjatlarini jamlash, davlat hisobiga olish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida Nizom”;

2-ilova – “O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi Davlat katalogi to‘g‘risida Nizom”;

3-ilova – “Arxivlarni tshkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”;

4-ilova – “Arxivlar va idoraviy arxivlar tomonidan xizmatlar ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”;

5- ilova – “Arxivlar mutaxassislarini O‘zbekiston Respublikasi karxonalari, muassasalari va tashkilotlari hujjatlarini tartibga keltirishga kompetentligi yuzasidan attestaciyada o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”;

6-ilova – “Arxiv hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish va arxiv hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”;

Mazkur Nizomlarda O‘zbekistonda arxiv ishini o‘rnatilgan talablarga ko‘ra tashkillashtirish uchun zarur qoidalar va ko‘rsatmalar berilgan. O‘zR Milliy arxiv fondi hujjatlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hujjatlar egasiga, tashkilotga maxsus guvohnoma berish joriy etildi. Davlat arxivlarining pulli xizmat ko‘rsatishi kengaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkilotlarning shaxsiy tarkib bo‘yicha hujjatlari saqlanishini taminlash maqsadida respublika shaharlari va tumanlari hokimliklari

tomonidan shaxsiy tarkib bo'yicha idoralararo arxivlar soni kengaytirildi. Bu arxivlar maxsus (byudjetdan tashqari) mablag'lar hisobiga tashkil qilindi. Ular fuqoralarni ijtimoiy-huquqiy so'rovlarini bajarishda, shahar va tumanlarda arxiv ishining umumiy ahvolni yaxshilashda muhim rol o'ynadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

- 1.O'zbekiston Respublikasi "Arxiv ishi tog'risida" gi Qanuni // Xalq so'zi. 2010. 16-iyun, 119-soni.
- 2.Rashidov O. O'zbekistonda arxiv ishi tarixi: o'quv qo'llanma. Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020.-168 b.
- 3.Buriyeva X.A., Nazarov A.Yo., Abbasov B.B. Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti. o'quv qo'llanma. Toshkent: Инновацион ривожланиш нашриёт – матбаа уйи, 2020.- 284 b.
- 4.Davlatov S.X., Abdaliyeva Z.X. Arxiv ishining nazariyasi va tarixi. o'quv qo'llanma. Toshkent: Arnaprint, 2008.- 134 b.